QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- mart holatiga ko'ra*
*(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

# KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 31 488 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 26 420 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar 83,0 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 80,3 foiz) tashkil etdi.

## Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda.*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2024- yil yanvar- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

175
3,5 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

125
3,5 %

Sanoat

38
1,6 %

Qurilish

276
2,8

Savdo

22
2,5 %

Tashish va saqlash

64
4,0 %

Yashash va ovqatlanish

31
8,1


Axborot va aloqa

14
1,7 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

107
1,5 %

Boshqa turlar

2024- yil yanvar- fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda 143 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 258 taga, oilaviy korxonalar 72 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qarshi shahri | 181 | 2,8 | % | Chiroqchi | 42 | 2,5 | % |
| Yakkabog‘ | 71 | 3,3 | % | Nishon | 40 | 2,5 | % |
| Qarshi | 65 | 3,8 | % | Kitob | 38 | 1,8 | % |
| Koson | 63 | 2,8 | % | Ko‘kdala | 38 | 4,0 | % |
| Kasbi | 58 | 3,8 | % | Mirishkor | 33 | 2,7 | % |
| Shahrisabz shahri | 50 | 2,8 | % | G‘uzor | 27 | 1,8 | % |
| Shahrisabz | 46 | 2,8 | % | Muborak | 22 | 2,1 | % |
| Qamashi | 42 | 2,1 | % | Dehqonobod | 16 | 1,3 | % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*







## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

4 955

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

3 538

Sanoat

2 412

Qurilish

9 760

Savdo

876

Tashish va saqlash

1 590

Yashash va ovqatlanish

383


Axborot va aloqa

804

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

7 170

Boshqa turlar

2024- yil 1- mart holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 31 488 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qarshi shahri | 6 416 | Nishon | 1 632 |
| Qarshi | 2 228 | Shahrisabz | 1 616 |
| Koson | 2 212 | Kasbi | 1 519 |
| Yakkabog‘ | 2 162 | G‘uzor | 1 515 |
| Kitob | 2 144 | Dehqonobod | 1 279 |
| Qamashi | 2 035 | Mirishkor | 1 244 |
| Shahrisabz shahri | 1 803 | Muborak | 1 063 |
| Chiroqchi | 1 667 | Ko‘kdala | 953 |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024- yil yanvar- fevral oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 810 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 809 ta;
- yirik korxonalar 1 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Qarshi shahri | 170 | 3,1 % | | Qamashi | 39 | 2,3 % |
| Qarshi | 84 | 4,3 % | | Nishon | 39 | 2,8 % |
| Yakkabog‘ | 67 | 3,7 % | | Kitob | 37 | 2,1 % |
| Koson | 62 | 3,3 % | | Ko‘kdala | 36 | 4,9 % |
| Kasbi | 56 | 4,3 % | | Mirishkor | 32 | 3,1 % |
| Shahrisabz shahri | 46 | 3,0 % | | G‘uzor | 26 | 2,1 % |
| Shahrisabz | 42 | 3,2 % | | Muborak | 21 | 2,3 % |
| Chiroqchi | 40 | 3,0 % | | Dehqonobod | 13 | 1,3 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish




Axborot va aloqa




Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish




Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- mart holatiga 26 581 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 149,3 foizni tashkil etdi (17 802 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 36,7 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 18,5 foiz, sanoat – 13,3 foiz, qurilish – 9,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 5,9 foiz, tashish va saqlash – 3,3 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 2,5 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, boshqa turlari – 9,3 foiz.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qarshi shahri | 5 517 | Chiroqchi | 1 354 |
| Qarshi | 1 932 | Shahrisabz | 1 318 |
| Koson | 1 864 | Kasbi | 1 302 |
| Yakkabog‘ | 1 830 | G‘uzor | 1 263 |
| Kitob | 1 801 | Mirishkor | 1 040 |
| Qamashi | 1 727 | Dehqonobod | 1 031 |
| Shahrisabz shahri | 1 553 | Muborak | 904 |
| Nishon | 1 414 | Ko‘kdala | 731 |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

174

3,5 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

124

3,6 %



Sanoat

38

1,6 %



Qurilish

276

2,8 %



Savdo

22

2,6 %



Tashish va saqlash

64

4,1 %



Yashash va ovqatlanish

31

8,2 %




Axborot va aloqa

14

2,1 %



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

66

2,7 %



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

## Hududlar kesimida

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qarshi shahri | 170 | 3,1 | % | Qamashi | 39 | 2,3 | % |
| Qarshi | 84 | 4,4 | % | Nishon | 39 | 2,8 | % |
| Yakkabog‘ | 67 | 3,7 | % | Kitob | 37 | 2,1 | % |
| Koson | 62 | 3,3 | % | Ko‘kdala | 36 | 4,9 | % |
| Kasbi | 56 | 4,3 | % | Mirishkor | 32 | 3,1 | % |
| Shahrisabz shahri | 46 | 3,0 | % | G‘uzor | 26 | 2,1 | % |
| Shahrisabz | 41 | 3,1 | % | Muborak | 21 | 2,4 | % |
| Chiroqchi | 40 | 3,0 | % | Dehqonobod | 13 | 1,3 | % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

4 914

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

3 490

Sanoat

2 374

Qurilish

9 723

Savdo

861

Tashish va saqlash

1 580

Yashash va ovqatlanish

376


Axborot va aloqa

668

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

2 434

Boshqa turlar

Hududlar kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Qarshi shahrida (20,6 foiz), Qarshi (7,3 foiz), Koson (7,0 foiz), Yakkabog‘ (6,9 foiz) va Kitob (6,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 60 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qarshi shahri | 5 455 | Chiroqchi | 1 349 |
| Qarshi | 1 920 | Shahrisabz | 1 311 |
| Koson | 1 853 | Kasbi | 1 297 |
| Yakkabog‘ | 1 824 | G‘uzor | 1 252 |
| Kitob | 1 797 | Mirishkor | 1 038 |
| Qamashi | 1 723 | Dehqonobod | 1 025 |
| Shahrisabz shahri | 1 548 | Muborak | 889 |
| Nishon | 1 409 | Ko‘kdala | 730 |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Qamashi | 685 |
| Nishon | 604 |
| Kasbi | 433 |
| Mirishkor | 404 |
| Koson | 394 |
| Yakkabog‘ | 353 |
| Shahrisabz | 328 |
| Qarshi | 323 |
| Kitob | 320 |
| Dehqonobod | 295 |
| Muborak | 172 |
| Ko‘kdala | 165 |
| Chiroqchi | 154 |
| Qarshi shahri | 149 |
| G‘uzor | 135 |
| Shahrisabz shahri | 41 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.




Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash

Baliq ovlash va akvakultura

# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Qarshi shahri | 682 |
| Kitob | 398 |
| Yakkabog‘ | 311 |
| Shahrisabz shahri | 286 |
| Qarshi | 255 |
| G‘uzor | 234 |
| Shahrisabz | 225 |
| Qamashi | 185 |
| Chiroqchi | 179 |
| Koson | 170 |
| Kasbi | 129 |
| Mirishkor | 105 |
| Nishon | 99 |
| Ko‘kdala | 99 |
| Muborak | 98 |
| Dehqonobod | 83 |

| | |
|---|---|
| 2024 | 3 538 |
| 2023 | 4 977 |
| 2022 | 4 795 |
| 2021 | 4 270 |
| 2020 | 3 522 |

Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. 2020- yilning mos davrida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish sur’ati 100,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 11,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 90,3 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish 69,2 foiz), 7,5 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish 96,4 foiz), 1,3 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish 72,3 foiz) va 0,9 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish 137,5 foiz) tashki etgan.

| | |
|---|---|
| Ishlab chiqarish sanoati | 3 191 |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 267 |
| Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | 47 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | 33 |

# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Qarshi shahri | 703 |
| Qarshi | 267 |
| Koson | 241 |
| Yakkabog‘ | 131 |
| Shahrisabz shahri | 127 |
| Chiroqchi | 116 |
| Kitob | 105 |
| Kasbi | 105 |
| Muborak | 104 |
| Qamashi | 99 |
| Shahrisabz | 92 |
| Dehqonobod | 80 |
| G‘uzor | 76 |
| Nishon | 69 |
| Mirishkor | 67 |
| Ko‘kdala | 36 |




Mamlakatimizda qurilish sohasida iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 61,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 73,6 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 18,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 119,1 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 20,7 foiz ulushni va 72,7 foizni tashkil etdi.



# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Qarshi shahri | 2 155 |
| Koson | 765 |
| Qarshi | 706 |
| Yakkabog‘ | 643 |
| Shahrisabz shahri | 626 |
| Chiroqchi | 626 |
| Shahrisabz | 616 |
| Kitob | 550 |
| G‘uzor | 530 |
| Qamashi | 511 |
| Kasbi | 456 |
| Nishon | 426 |
| Dehqonobod | 396 |
| Muborak | 366 |
| Mirishkor | 339 |
| Ko‘kdala | 300 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 9 723 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 70,1 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 83,2 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 21,9 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 97,7 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 8,0 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 84,4 foizni tashkil etdi.

**778**
Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**2 139**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**6 843**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Qarshi shahri | 407 |
| Kitob | 161 |
| Shahrisabz | 155 |
| Shahrisabz shahri | 141 |
| Yakkabog‘ | 139 |
| Qarshi | 91 |
| Chiroqchi | 79 |
| G‘uzor | 74 |
| Qamashi | 67 |
| Dehqonobod | 52 |
| Koson | 50 |
| Nishon | 46 |
| Ko‘kdala | 39 |
| Muborak | 33 |
| Kasbi | 32 |
| Mirishkor | 24 |




2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 134,5 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-mart holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 10,1 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 89,9 foiz ulushini tashkil etdi.

**161** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**1 429** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar





# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Qarshi shahri | 152 |
| Chiroqchi | 46 |
| Qarshi | 30 |
| Shahrisabz shahri | 26 |
| Kitob | 22 |
| G‘uzor | 20 |
| Kasbi | 16 |
| Yakkabog‘ | 14 |
| Koson | 14 |
| Ko‘kdala | 11 |
| Qamashi | 9 |
| Muborak | 6 |
| Mirishkor | 5 |
| Shahrisabz | 5 |
| Nishon | 5 |
| Dehqonobod | 2 |




2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 22,2 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 81,7 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 36,0 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 89,0 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 41,8 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 79,6 foizni tashkil etdi.



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Qarshi shahri | 254 |
| Shahrisabz shahri | 86 |
| Yakkabog‘ | 75 |
| Kitob | 63 |
| Koson | 48 |
| Qarshi | 46 |
| Qamashi | 41 |
| Shahrisabz | 37 |
| Chiroqchi | 30 |
| G‘uzor | 29 |
| Nishon | 24 |
| Kasbi | 23 |
| Muborak | 17 |
| Mirishkor | 16 |
| Dehqonobod | 9 |
| Ko‘kdala | 6 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 668 ta yoki 83,1 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

95,8 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 98,6 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 2,4 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati 90,5 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 88,2 foizni tashkil etdi;



# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Qarshi shahri | 321 |
| Qarshi | 71 |
| Koson | 65 |
| Shahrisabz shahri | 59 |
| Yakkabog‘ | 54 |
| Kitob | 50 |
| G‘uzor | 49 |
| Shahrisabz | 40 |
| Kasbi | 37 |
| Mirishkor | 32 |
| Chiroqchi | 21 |
| Nishon | 17 |
| Qamashi | 16 |
| Muborak | 15 |
| Dehqonobod | 15 |
| Ko‘kdala | 14 |




2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 2,8 foiz ulushini tashkil etdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o‘sish sur’ati 86,2 foizni tashkil etdi;

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining o‘sish sur’ati 89,6 foizni;

pochta va kuryerlik yo‘nalishi 80,5 foizni tashkil etdi;

suv transporti yo‘nalishidagi korxonalar soni 1 tani tashkil etadi.

| Suv transporti | Pochta va kuryerlik faoliyati | Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | Quruqlikdagi va quvur transporti |
|---|---|---|---|
| 1 | 33 | 146 | 696 |

## Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

**Tadbirkorlik subyektlari soni** | **Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot

*2024- yil yanvar- fevral holatiga ko'ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

146
4,2 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

61
3,6 %

Sanoat

34
1,9 %

Qurilish

189
3,5 %

Savdo

21
2,9 %

Tashish va saqlash

28
5,4 %

Yashash va ovqatlanish

27
11,1 %


Axborot va aloqa

8
2,6 %

Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

48
3,1 %

Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qarshi shahri | 126 | Qamashi | 26 |
| Kasbi | 54 | Shahrisabz shahri | 23 |
| Qarshi | 53 | Shahrisabz | 22 |
| Koson | 50 | Ko'kdala | 21 |
| Yakkabog' | 49 | Kitob | 20 |
| Mirishkor | 29 | Muborak | 17 |
| Nishon | 29 | G'uzor | 15 |
| Chiroqchi | 26 | Dehqonobod | 2 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 26 581 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 15 720 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o‘sish sur’atlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori ko‘rsatkich savdoda – 34,4 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 22,3 foiz, qurilish – 11,3 foiz, sanoat – 10,9 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qarshi shahri | 3729 | Mirishkor | 817 |
| Koson | 1365 | Kitob | 665 |
| Yakkabog‘ | 1234 | Shahrisabz shahri | 646 |
| Qamashi | 1208 | Muborak | 625 |
| Qarshi | 1030 | G‘uzor | 596 |
| Kasbi | 966 | Shahrisabz | 507 |
| Nishon | 924 | Ko‘kdala | 382 |
| Chiroqchi | 819 | Dehqonobod | 207 |

# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




**XusUsiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qarshi shahri | 23 | Ko‘kdala | 6 |
| Qarshi | 18 | Nishon | 5 |
| Kitob | 16 | Qamashi | 3 |
| Shahrisabz shahri | 15 | Koson | 2 |
| Yakkabog‘ | 10 | Kasbi | 2 |
| Shahrisabz | 10 | Mirishkor | 1 |
| Chiroqchi | 7 | Muborak | 1 |
| Dehqonobod | 7 | G‘uzor | 1 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 74,0 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qarshi shahri | 1213 | Qamashi | 330 |
| Kitob | 896 | Chiroqchi | 324 |
| Dehqonobod | 692 | Kasbi | 296 |
| Shahrisabz shahri | 664 | Koson | 268 |
| Yakkabog‘ | 491 | G‘uzor | 204 |
| Qarshi | 467 | Muborak | 167 |
| Shahrisabz | 397 | Ko‘kdala | 149 |
| Nishon | 380 | Mirishkor | 139 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

522

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

773

Sanoat

26

Qurilish

1 208

Savdo

16

Tashish va saqlash

489

Yashash va ovqatlanish

34


Axborot va aloqa

69

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

220

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra 3 357 etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qarshi shahri | 493 | Chiroqchi | 191 |
| G‘uzor | 446 | Qamashi | 146 |
| Qarshi | 408 | Nishon | 102 |
| Shahrisabz | 394 | Muborak | 92 |
| Shahrisabz shahri | 226 | Yakkabog‘ | 89 |
| Kitob | 223 | Dehqonobod | 67 |
| Koson | 198 | Mirishkor | 67 |
| Ko‘kdala | 192 | Kasbi | 23 |

## Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yetakchi o‘rinni 31 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 19,4 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 16,3 foiz), Afg‘oniston (ulushi 10,0 foiz), Turkiya Respublikasi (ulushi 9,4 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 4,4 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qarshi shahri | 41 | Yakkabog‘ | 8 |
| Muborak | 18 | Mirishkor | 8 |
| Dehqonobod | 12 | Chiroqchi | 7 |
| G‘uzor | 10 | Kasbi | 6 |
| Kitob | 9 | Shahrisabz | 5 |
| Qarshi | 8 | Qamashi | 5 |
| Koson | 8 | Shahrisabz shahri | 4 |
| Nishon | 8 | Ko‘kdala | 3 |

# Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*




O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 97 tasi qo‘shma korxonalar, 63 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot

*2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda*

| qo'shma korxonalar | | xorijiy korxonalar |
|---|---|---|
| 5 | G'uzor | 5 |
| 8 | Dehqonobod | 4 |
| 3 | Qamashi | 2 |
| 4 | Qarshi | 4 |
| 6 | Koson | 2 |
| 6 | Kitob | 3 |
| 4 | Mirishkor | 4 |
| 7 | Muborak | 11 |
| 5 | Nishon | 3 |
| 1 | Kasbi | 5 |
| 1 | Ko'kdala | 2 |
| 6 | Chiroqchi | 1 |
| 2 | Shahrisabz | 3 |
| 6 | Yakkabog' | 2 |
| 31 | Qarshi sh. | 10 |
| 2 | Shahrisabz sh. | 2 |

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- yanvar- fevraldagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.








# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish bo‘limi**
Tel.:(75) 221-17-93